

BOLALARNING IQTIDORINI ANIQLASHDA IXTISOSLASHGAN MARKAZLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Qo'qon universiteti Andijon filiali

Sirtqi Iqtisodiyot yo`nalishi

SI_IQ_24-25- guruh talabasi

Dumarova Surayyo Dilshodbek qizi

dumarovasurayyoxon@gmail.com

Ilmiy rahbar: Z.M.Iminov,

KUAF "Iqtisodiyot va moliya" kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada bolalarning iqtidorini erta aniqlashga qaratilgan ilmiy-amaliy markazni tashkil etishning dolzarbligi, pedagogik-psixologik yondashuvlari hamda iqtisodiy yechimlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda markaz faoliyatini moliyaviy jihatdan barqaror tashkil etish mexanizmlari asoslab beriladi. Maqola natijalari ta'lim muassasalari va ta'lim sohasidagi tashabbuskorlar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar

Iqtidorli bolalar, iqtidor, tanlov, ilmiy-amaliy markaz, pedagogik diagnostika, iqtisodiy-ijtimoiy yechim, individual yondashuv, ta'lim samaradorligi.

Аннотация

В данной статье анализируются актуальность, педагогические и психологические подходы, а также экономические решения по созданию научно-практического центра, направленного на раннее выявление талантов у детей. Исследование обосновывает механизмы финансово устойчивой организации деятельности центра. Результаты статьи имеют

практическое значение для образовательных учреждений и инициаторов в сфере образования.

Ключевые слова

Одаренные дети, талант, конкурс, научно-практический центр, педагогическая диагностика, социально-экономическое решение, индивидуальный подход, эффективность образования.

Annotation

This article analyzes the relevance, pedagogical and psychological approaches, as well as economic solutions for the creation of a scientific and practical center aimed at early identification of talents in children. The research substantiates the mechanisms of financially sustainable organization of the center's activities. The results of the article are of practical importance for educational institutions and initiators in the field of education.

Keywords

Gifted children, talent, competition, scientific and practical center, pedagogical diagnostics, socio-economic solution, individual approach, educational effectiveness.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri kichik yoshdagi bolalarda (3-6 yosh) mavjud bo'lgan iqtidor va qobiliyatlarni erta aniqlash hamda ularni to'g'ri yo'naltirishdan iboratdir. Aksariyat hollarda bolalarning tabiiy qobiliyatlari vaqtida aniqlanmasligi natijasida ularning salohiyati to'liq namoyon bo'lmay qolmoqda. Ota – onalar bolalarining qobiliyatini sezmay, bolalarning qiziqishiga, qobiliyatiga qarshi bo'lgan hattiharakatlar qilib, ularning iqtidorini o'zlari bilmagan holda so'ndirishlari mumkin. Iqtidorini topa olmagan bolalar o'zlari istamagan holda majburan boshqa yo'nalishda qiyinchilik bilan o'rganib o'sib-ulg'ayadilar. Kelajakda bunday

bolalar o'z qobiliyatini topolmay faqat o'rgatilingan ishdan boshqasini qilolmaydigan, faqatgina aytilgan vazifa topshiriqlarni bajaradigan shaxs bo'lib yetishadilar. Bunday bolalar o'z ustida hech qachon ishlamaydi chunki na qiziqish bor, na qobiliyat. Qachonki tashqaridan talab qilingandagina harakat qilishi mumkin. Xo'sh, agar talab qilinmasachi? Doim bir joyda qotib turadi, yuksak martabalarga yetishish atigi 0.5 % ga teng bo'ladi. Jamiyatga iqtidorli-qobiliyatli o'z-ishining professional mutaxasisi bo'lgan kadrlar, liderlar kerak. Bir bolaning jamiyatda o'rnini topolmasligi, kelajakda bir oilaning qiyinchilikda yashashiga olib keladi. Ya'ni statistik yondashadigan bo'lsak: har 10 ta boladan 7 tasi jamiyatda o'rnini topolmasa, 7 ta oila qiyinchilikda yashaydi degani. Har 1 ta oilada kamida 3 yoki 4 kishi bor deb faraz qilsak, jami o'rtacha 25 foiz fuqaroga moliyaviy ko'mak zarur degani. Bu esa davlatda kambag'allikni ko'payishiga bevosita tasir o'tkazadi.

Shu bois, pedagog va psixologlar hamkorligida faoliyat yurituvchi kichik yoshdagi bolalarning iqtidorini aniqlash ilmiy-amaliy markazlarini tashkil etish – zamonaviy ta'lim tizim uchun dolzarb masala hisoblanadi. Bunday markazlar nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki jamiyat uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Bunday ilmiy-amaliy markaz bolalarning o'z iqtidorini topib, uni rivojlantirishga qaratilingan bo'ladi.

Ushbu markazlarning asisyy maqsadi quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: bolalarning iqtidorini aniqlash va uni rivojlantirish; kelajakda yetuk lider, professional mutaxasis, qolaversa yangi innovatsiya yaratuvchi olimlarni yetishtirish; iqtidorli bolalarni erta aniqlash orqali kelajakda malakali kadrlar tayyorlab, ta'lim sifatini oshirib, jamiyat intellektual salohiyatining yuksalishiga erishish; jamiyatda ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish; chet davlatlariga qora mehnat kuchini emas balki liderlarni, olim va biznesmenlarni chiqarish; iqtidor tushunchasining ilmiy mazmunini ochib berish.

Bolalarning iqtidorini aniqlashda professional pedagog, psixologlar tomonidan kuzatilib aniqlanadi hamda aniqlangan iqtidor turlariga mos ravishda

har bir bola uchun individual ta'lim va rivojlanish yo'nalishlari ishlab chiqiladi. Bu bolalarning salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. har bir iqtidorni aniqlash, maxsus ishlangan bosqichma-bosqich modul tizimida, ilmiy-amaliy yondoshilib aniqlash. Aniqlangan iqtidor turlariga mos ravishda har bir bola uchun individual ta'lim va rivojlanish yo'nalishlari ishlab chiqish. Har bir bosqichda iqtidorni 60%, 75%, va 95% li aniqlikda ishlaniladi.

Bugungi globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyoti inson kapitalining sifati bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, bolalarda mavjud iqtidor va qobiliyatlarni erta aniqlash hamda ularni tizimli ravishda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.



Iqtidor vaqtida aniqlanmasa, u rivojlanmasdan qolishi mumkin. Erta aniqlash orqali bolaning ichki salohiyati saqlanib, maqsadli ravishda rivojlantiriladi. har bir Aniqlangan qobiliyatga talimda individual yondashilsa erta yuksak natijaga erishiladi.

O'z qobiliyatini anglagan bola o'ziga ishonadi, faolligi ortadi va o'zini namoyon etishga intiladi. Bu psixologik jihatdan muhim omil hisoblanadi. Agar bolaning qobiliyati aniqlanmasa, u o'ziga mos bo'lmagan yo'nalishga majburlanishi mumkin. Erta aniqlash noto'g'ri tanlovlarning oldini oladi. Iqtidorli bolalar bilan tizimli ishlash natijasida kelajakda jamiyat uchun raqobatbardosh, malakali mutaxassislar yetishib chiqadi. Bu esa mamlakatimizni yanada rivojlantirib yuksak martabalarga olib chiqadi.

Shu bois, bolalar iqtidorini aniqlashga qaratilgan maxsus o'quv maskanlarini tashkil etish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Metod va usullar

Ushbu maqolaning maqsadi — bolalar iqtidorini aniqlashga ixtisoslashgan o'quv maskanini tashkil etishning ilmiy-pedagogik asoslarini ochib berishdan iborat. Bunda quyidagi mezonlardan kelib chiqildi.

1. Ilmiy-amaliy markaz faoliyatining mazmuni.

Bolalarning iqtidorini aniqlash ilmiy-amaliy markazi pedagog-psixologik kuzatuv, diagnostika va tahlil asosida faoliyat yuritadi. Markazda bolalarning intellektual, ijodiy va ijtimoiy qobiliyatlari tizimli ravishda o'rganiladi.



Individual yondashuv asosida har bir bolaning iqtidor yo'nalishi aniqlanadi. Markaz bolalarning intellektual, ijodiy, akademik, sport va yetakchilik qobiliyatlarini ilmiy asoslangan diagnostika metodlari orqali aniqlaydi. Psixologik testlar, kuzatuv va monitoring tizimlari qo'llaniladi. Bolalar iqtidorini aniqlash va rivojlantirish bo'yicha fundamental hamda amaliy tadqiqotlar olib boriladi. Tadqiqotlar natijasida milliy va xalqaro tajribaga tayangan metodikalar ishlab chiqiladi. Aniqlangan iqtidor turlariga mos ravishda har bir bola uchun individual ta'lim va rivojlanish yo'nalishlari ishlab chiqiladi. Bu bolalarning salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Markaz maxsus to'garaklar, laboratoriyalar, treninglar va ijodiy loyihalar orqali iqtidorli bolalarni rivojlantiradi. Olimpiadalar, tanlovlar va ko'rik-tanlovlarda ishtirok etishiga ko'maklashadi. O'qituvchilar, psixologlar va tarbiyachilar uchun malaka oshirish kurslari, seminarlar va metodik treninglar tashkil etiladi. Bu orqali iqtidorli bolalar bilan ishlash sifati oshiriladi. Ota-onalarga boladagi iqtidorni aniqlash, uni to'g'ri yo'naltirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha maslahatlar beriladi. Psixologik-pedagogik tavsiyalar ishlab chiqiladi. Iqtidorli bolalar bazasi shakllantiriladi, ularning rivojlanish dinamikasi doimiy monitoring qilinadi. Natijalar asosida taklif va xulosalar tayyorlanadi. Innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish. Onlayn diagnostika, raqamli platformalar va sun'iy

intellekt asosidagi baholash tizimlari joriy etilib, Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi.

2. Qobiliyat va iqtidorni aniqlashning pedagogik va psixologik metodik bosqichlari.

Qobiliyat — bu shaxsning muayyan faoliyat turini muvaffaqiyatli bajarishiga imkon beruvchi psixologik xususiyatlar majmuidir. Qobiliyat insonda tug'ma imkoniyat sifatida mavjud bo'lib, ta'lim va tarbiya jarayonida rivojlanadi. Qobiliyatlar bilim va ko'nikmalarning tez va samarali o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Misol uchun, bolada til o'rganishga, mantiqiy fikrlashga yoki rasm chizishga moyillik bo'lishi mumkin. Bu — qobiliyatning dastlabki ko'rinishidir. Qobiliyat har bir bolada ma'lum darajada mavjud bo'lib, ta'lim va tarbiya jarayonida rivojlanadi. Qobiliyatning asosiy belgilariga quyidagilar kiradi:

- Faoliyatni tez o'zlashtirish;
- Bilim va ko'nikmalarni samarali qo'llay olish;
- O'rganishga bo'lgan qiziqish;
- Mehnatsevarlik va barqarorlik.

Iqtidor — shaxsning muayyan faoliyat turida yuqori natijalarga erishish imkonini beruvchi individual qobiliyatlar majmuidir. Yani bu qobiliyatlarning yuqori darajada rivojlangan majmui bo'lib, boshqalarga nisbatan yuqori natijalarga erishish imkonini beradi. Iqtidor tug'ma imkoniyatlarga tayanadi, ammo maqsadli rivojlantirilmadan to'liq namoyon bo'lmaydi. Iqtidor quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- Noodatiy va original fikrlash;
- Yuqori intellektual salohiyat;
- Ijodkorlik va tashabbuskorlik;
- Mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati;
- Barqaror ichki motivatsiya.

Pedagogik nuqtayi nazardan iqtidor bolada tabiiy imkoniyat sifatida namoyon bo'lib, maqsadli ta'lim va tarbiya jarayonida rivojlanadi. Bolalarning

qobiliyati va iqtidorini aniqlash murakkab, ko'p bosqichli jarayon bo'lib, pedagogik va psixologik yondashuvlarning uyg'unligini talab etadi. Ushbu jarayon bolaning individual rivojlanish xususiyatlarini chuqur o'rganishga qaratiladi. Pedagogika va psixologiyada iqtidorni aniqlash bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

1-bosqich. Dastlabki pedagogik kuzatuv

Mazkur bosqichda bolaning o'quv jarayonidagi faolligi, qiziqishlari va xulq-atvori kuzatiladi.

o'quv fanlariga bo'lgan qiziqish;

mustaqil fikrlash darajasi;

ijodkorlik namoyon bo'lishi;

tengdoshlar bilan muloqot ko'nikmalari. Pedagogik kuzatuv iqtidorning dastlabki belgilarini aniqlashga xizmat qiladi.

2-bosqich. Pedagogik diagnostika

Ushbu bosqichda ta'lim jarayonida qo'llaniladigan maxsus metodlar orqali qobiliyatlar baholanadi:

nazorat va ijodiy ishlar;

muammoli topshiriqlar;

fan olimpiadalari va tanlovlar;

loyiha va tadqiqot ishlari. Bu bosqich bolaning bilimlarni o'zlashtirish tezligi va chuqurligini aniqlash imkonini beradi.

3-bosqich. Psixologik tekshiruv (diagnostika)

Psixologik bosqich bolaning individual-psixologik xususiyatlarini aniqlashga qaratiladi:

intellektual rivojlanish darajasi;

xotira, diqqat va tafakkur xususiyatlari;

ijodiy fikrlash;

motivatsiya va emotsional barqarorlik. Bu bosqichda standartlashtirilgan testlar va metodikalar qo'llaniladi.

4-bosqich. Suhbat va anketa o'tkazish

Bola, ota-ona va pedagoglar bilan o'tkaziladigan suhbatlar orqali qo'shimcha ma'lumotlar to'planadi:

bolaning qiziqish doirasi;

oilaviy muhitning ta'siri;

mustaqil mashg'ulotlarga moyillik. Bu bosqich natijalarni aniqlashtirishga yordam beradi.

5-bosqich. Kompleks tahlil va ekspert baholash

Pedagog va psixologlar tomonidan olingan natijalar kompleks tarzda tahlil qilinadi:

metodik natijalarni solishtirish;

iqtidor turi va darajasini aniqlash;

kuchli va rivojlantirilishi lozim bo'lgan jihatlarni belgilash. Ekspert baholash aniqlik va xolislikni ta'minlaydi.

6-bosqich. Individual rivojlanish dasturini ishlab chiqish

Aniqlangan qobiliyat va iqtidor asosida individual rivojlanish yo'nalishlari belgilanadi:

mos ta'lim strategiyalari;

qo'shimcha mashg'ulotlar;

ixtisoslashgan to'garak va markazlarga yo'naltirish. Bu bosqich iqtidorni rivojlantirishning amaliy qismi hisoblanadi.

7-bosqich. Monitoring va qayta baholash

Iqtidor doimiy rivojlanishda bo'lgani sababli:

muntazam kuzatuv;

qayta diagnostika;

rivojlanish dinamikasini baholash amalga oshiriladi. Bu bosqich metodikaning uzluksizligini ta'minlaydi.

Bolalar qobiliyat va iqtidorini aniqlashni ilmiy-amaliy metodikasini qanday bosqichdan iborat ekanini aniqlab oldik. Endi esa uni amalga oshirish uchun ilmiy amaliy jihatdan qancha vaqt ketishini ko`rib chiqamiz.

Demak **1-oyda** iqtidor moyilligi aniqlanadi

3 oydan 6 oy davomida iqtidor tasdiqlanadi va aniqlashtiriladi

1-yil → iqtidor barqaror rivojlanish bosqichiga o'tadi

Shuning uchun 1 oylik dastur ilmiy jihatdan asoslangan va amalda qo'llaniladigan usul hisoblanadi. Shu 1 oyni ham haftalik metod modul tizimi bor. Ushbu jarayonlarda tavsiya etilayotgan metodlarni ajratib chiqsak:

1-hafta: Boshlang'ich baholash:

Psixologik testlar

Mantiqiy va ijodiy topshiriqlar

O'qituvchi kuzatuv

Natija: qobiliyat darajasi (past–o'rta–yuqori)

2-hafta: Yo'nalishli mashg'ulotlar:

Matematika / til / ijod / texnik topshiriqlar

Kichik loyihalar

Natija: qaysi sohada tez o'sish borligi aniqlanadi

3-hafta: Faoliyatga asoslangan baholash:

Mustaqil ishlar

Guruhli vazifalar

Muammo yechish holatlari

Natija: real iqtidor namoyoni

4-hafta: Yakuniy tahlil:

Natijalarni solishtirish

Psixolog–pedagog xulosasi

Ota-onaga tavsiya

Natija: iqtidor yo'nalishi (masalan, analitik, ijodiy, tilga moyil)

Agarda bolalarni iqtidorni aniqlash ilmiy-markazda 30-40 ta bola bo'lsa, statistik tahlil shuni ko'rsatadiki 1 oy ichida:

70–75% bolada aniq iqtidor moyilligi aniqlangan;

20–25% bolada kuzatuvni davom ettirish talab etilgan;

5–10% bolada iqtidor kech namoyon bo'lgan

Demak, har 10 boladan 7 nafar bolalarda iqtidor qobiliyati dastlabki bosqichda aniqlanadi.

3. Bolalarda iqtidorni aniqlash va rivojlantish ilmiy-amaliy markazni yo'lga qo'yishning, iqtisodiy yechim va moliyaviy barqarorligi.

Ilmiy-amaliy markaz faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun iqtisodiy jihatdan asoslangan model muhim hisoblanadi. Markazning asosiy moliyaviy manbalari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

Ota-onalar tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlar;

Davlat va nodavlat grantlari;

Homiylik va ijtimoiy sheriklik.

Bunday markazlarni yo'lga qoyish pilot rejimida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bu realistik va ilmiy loyihalarda ishlatiladigan model hisoblanadi. Shuning uchun dastlab ko'p bola bilan emas maksimum 50 nafargacha bolalar bilan ishlashga mo'ljallangan markaz ochish bilan boshlab, so'ng sinov bosqichi muvaffaqiyatiga qarab faoliyatni keng qamrovga o'tkazish mumkin bo'ladi.

Muhokama

Chet davlatlarda bolalar iqtidorini erta aniqlash markazlari natijasida, iqtidoriga mos maxsus ilmiy-amaliy yondoshilish natijasida juda kuchli olim, mutaxassislar yetishib chiqqan. Masalan: AQSh dagi Johns Hopkins Universitetining Center for Talented Youth (CTY) markazi. Bu markaz iqtidorni ilmiy testlar orqali aniqlaydi va keyin unga moslashtirilgan ta'lim imkoniyatlarini

beradi. Bu markazdan juda ko‘plab mashxur insonlar chiqqan. Ulardan biri Terence Tao, Fields Medal sohibi, dunyoning eng kuchli matematiklaridan biri.

Fields medali — bu matematika sohasidagi eng nufuzli xalqaro mukofot bo‘lib, ko‘pincha “Matematikaning Nobel mukofoti” deb ataladi. faqat eng buyuk matematik yutuqlar uchun beriladi. Olimning butun dunyoda tan olinishini bildiradi.

Center for Talent Development (CTD) — AQSh dagi bu makaz faoliyati: Keng ko‘lamli dasturlar — ta‘lim, psixologik diagnostika, iqtidorni rivojlantirish uchun onlayn va oflayn kurslari mavjud. CTD uzoq yillik tadqiqot va ta‘lim tajribasiga ega bo‘lib, yoshlar iqtidorini aniqlash va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yetakchi markazlardan biri hisoblanadi. CTD iqtidorni aniqlashda ilmiy tadqiqot asosini joriy qilgan markazlardan biridir. Bu markazdan ham Fields medali sohibi Akshay Venkatesh yetishib chiqqan.

Polshadagi Polish Children’s Fund markazidan: Fan va innovatsiya yosh olimlari, Yevropa ilmiy grantlari sohiblari yetishib chiqqan.

Chexiyadagi Talnet (Charles University bilan hamkorlik) markazida Ilmiy va akademik iqtidorlari, Xalqaro olimpiada g‘oliblari, Xalqaro fan tanlovlarida yutuqqa erishgan kuchli insonlar yetishib chiqqan. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ixtisoslashgan markazlar orqali aniqlangan iqtidorlar maktabdagi umumiy baholashga nisbatan ancha to‘liq va aniq bo‘ladi. Bunda mutaxassislar jamoasi, maxsus metodikalar va texnik vositalarning o‘rni muhimdir.

Bizda aniq talimga yo‘naltirilgan markazlar bor. Masalan: chet tillari, matematika, raqs, sport... kabi chuqurlashtirilgan bog‘cha, maktab, kurslar bor. Lekin bolaning bunga qobiliati bo‘lmasachi? Shuncha vaqt, sarmoya behuda ketadi. Majburlanib o‘qigan boladan hech qachon professional mutaxasis yetishib chiqmaydi! Sababi bu bola qiziqib o‘z hoxishi bilan ishlamaydi. Ota-onasining xohish istaklarini amalga oshirish uchun o‘zining qizqishini bir chetga surib qo‘yib harakat qiladi. Bu harakatlar ham uzoq davom etmaydi. Chunki kasbiga bo‘lgan mehr yo‘qligi sabab, ishda yaxshi natija ko‘rsata olmaydi. Inson o‘zini

yana boshqa kasblarda ham sinab ko'radi. Oxiri hammasidan charchab o'ziga o'zi savol beradi. Men o'zi nimaga qiziqaman dep. Bunga aniq javob topolmaydi, chunki yoshligida qiziqish qobiliyatlar so'nib qolgan bo'ladi. Pul topish maqsadida inson yana ishlashga majbur bo'ladi. Majburan ishlayotgan kadrda ishdagi yutuqlar, o'z ustida ishlash, yangi g'oyalar deyarli bo'lmaydi. Bolalarda qobiliyatni aniqlash ilmiy-amaliy markazi O'zbekistondagi o'ziga xos innovatsion yo'naltiruvchi markazga aylanib bolalarni ilk davrdanoq aniq tizimli mexanizm asosida saralab olish va muayyan kasb-malakalarga ixtisoslashtirish imkonini beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bolalarning iqtidorini aniqlash ilmiy-amaliy markazini tashkil etish bugungi ta'lim tizimi uchun dolzarb va zarur yo'nalish hisoblanadi. Pedagogik-psixologik yondashuv va iqtisodiy asoslangan yechimlar orqali bunday markazlar ta'lim sifati va jamiyat taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shadi.

Agar bolada qobiliyat bo'lmasa nima qilinadi. Xa ayrim bolalarda iqtidor bo'lmasligi mumkun. Bunday xolatlarda biz bolalarni qiziqishidan kelib chiqib ularga ilmiy yondoshamiz. Yani qiziqishini mutaxassislikka aylantiramiz. Bu jarayonda bizga defektologlar yordam beradi.

Defektolog-faqat maxsus ehtiyojli bolalar bilan emas, balki sog'lom bolalarning rivojlanishidagi yashirin qiyinchiliklarni aniqlash va bartaraf etish bilan ham shug'ullanadi. Ular barcha bolalarni qobiliyatini namoyon qilishdagi to'siqlarni aniqlab bartaraf etadi. Bizning markazimizdagi pedagog, psixolog, defektolog va logoped mutaxasislarimiz doim ota-ona bilan xamjihatlikda ish faoliyat olib boriladi.

Markaz faoliyatini bosqichma-bosqich yo'lga qo'yish orqali xarajatlar optimallashtiriladi. O'quv jarayonini kichik guruhlarda tashkil etish, mavjud infratuzilmadan samarali foydalanish ham iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Iqtisodiy jihatdan markaz nafaqat o'zini o'zi qoplaydigan, balki uzoq muddatda foyda keltiradigan ijtimoiy loyiha sifatida namoyon bo'ladi. Eng muhimi, jamiyat uchun yuqori salohiyatli yoshlar tayyorlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.G'oziyev. Umumiy psixologiya. Psixologiya mutaxassisligi uchun o'quv qo'llanma. II -kitob. Toshkent - "Universitet" - 2002
2. Sh.A.Abdullayeva. Pedagogik diagnostika va korreksiya. — Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo” nashriyoti, 2022.
3. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. — T: “Sano-standart” nashriyoti, 2017-yil, 416 b.
4. Leites, N. S. Psixologiya odarennosti detey. – Moskva: Akademiya, 2018.
5. Gardner, H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 2011.
6. Renzulli, J. S. The Enrichment Triad Model: A Guide for Developing Defensible Programs for the Gifted and Talented. – Mansfield Center: Creative Learning Press, 2016.
7. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Iqtidorli bolalar bilan ishlash bo'yicha metodik tavsiyalar. – Toshkent, 2022.
8. Shoumarov, G'. B. Pedagogik diagnostika asoslari. – Toshkent: Fan, 2017.